

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA EMOTSIONAL LIDERLIK QOBILIYATI SHAKLLANISHIDAGI OMILLAR

N. O. Ismoilova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
e-mail: ismoilovanozima12@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinfi o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishning afzalliklari, bu jarayonni amalga oshirish uchun davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qabul qilingan qonun qaror va farmonlar va bu jarayonning shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy muvofiqlikdagi o'rni hamda ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan holda beradigan ijobiy ta'sirlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: emotsional liderlik, boshlang'ich sinfi, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, shaxsiy o'sish, ta'lim jarayoni.

Аннотация

В данной статье научно и теоретически обоснованы преимущества формирования эмоционального лидерства у учащихся начальных классов, осуществляемые в нашей стране реформы, принятые законы, постановления и указы, а также значение этого процесса в личностном развитии и социальной адаптации. Особое внимание уделено положительному влиянию интеграции эмоционального лидерства в образовательный процесс.

Ключевые слова: эмоциональное лидерство, начальная школа, социально-эмоциональное развитие, личностный рост, образовательный процесс.

Annotation

This article scientifically and theoretically substantiates the advantages of developing emotional leadership skills in primary school students, the reforms being implemented in our country to support this process, relevant laws, decrees, and resolutions, as well as the role of this development in personal growth and social adjustment. Furthermore, it highlights the positive impact of integrating emotional leadership into the educational process.

Keywords: emotional leadership, primary school, social-emotional development, personal growth, educational process.

Kirish

Hozirgi zamon ta'lim tizimi nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallashni, balki o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishni ham taqoza etayapti. Shuning uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh davri bolaning hissiy rivojlanishi va psixologik rivojlanishi uchun eng muhim poydevor hisoblanadi, ular o'zaro muloqot, o'zini boshqalar o'rniga qo'yib ko'ra olish va emotsional barqarorlik kabi sifatlarni rivojlantira boshlaydi. Yuqorida keltirilgan misollarni ya'ni yoshlarni yanada barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun bir qancha islohotlar olib borilmoqda bularga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son, 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni to'g'risida" PQ-4884-sonli qarori, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" 577-son qarorini amalga tadbiq qiluvchi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom" [1]ning ishlab chiqilishi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlandi. Fikrimcha, keltirilgan ta'lim sohasiga oid qonun farmonlarning barchasi ertangi kelajagimiz uchun poydevor vazifasini o'taydi, chunki, tarbiyalanayotgan aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari qanchalik bilimli, shijoatli va o'z oilasiga, vataniga, kasbiga, sadoqatli bolsa o'sha davlatning keajagi porlloqdir.

Boshlang'ich sinf — bu bolalarning maktab ta'limiga ilk bosqichda jalb qilinadigan davri bo'lib, odatda 1-sinfdan 4-sinfgacha bo'lgan yoshni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda o'quvchilarda savodxonlik, hisob-kitob ko'nikmalari, elementar fan asoslari bilan birga ijtimoiy va emotsional ko'nikmalar shakllantiriladi. Boshlang'ich ta'lim bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirisha olishi va jamiyatga moslashuvida asosiy rol o'ynaydi. Bu bosqichda o'qituvchining shaxsiyati, yondashuvi va pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi[2]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ayni ijtimoiy-emotsional rivojlanish, shaxsiy o'sish uchun hamda ta'lim jarayonida ham muhim vaqt hisoblanadi, chunki ushbu bosqichlar o'quvchilar faoliyati uchun muhimdir.

Bulardan shaxsiy o'sish haqida firk yuritadigan bo'lsak, shaxsiy o'sish- bu insonning o'z hayoti davomida ongli ravishda o'zini rivojlantirish, yangi ko'nikmalarni egallash, shaxsiy salohiyatni oshirish va hayot sifatini yaxshilash jarayonidir. Bu jarayon insonning o'zini

anglash, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, maqsadlar qo'yish va ularga erishish orqali amalga oshadi. Shaxsiy o'sish bu insonning jamiyatda o'ziga xos o'rnini egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uchun ahamiyatli bosqichlardan biridir.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish bolalarning jamiyatga moslashuvi, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, shuningdek, boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir. Bu rivojlanish bolalarning shaxsiy o'sish va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan: tayyorlov guruhidagi(6-7 yoshli) bolalar ijtimoiy muhitga moslashish, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish, "Men konsepsiyasini shakllantirish, his-tuyg'ularni anglash va boshqarish kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu jarayon bolalarning maktabga tayyorgarligi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi[3]. Demak ijtimoiy-emotsional rivojlanish – bu bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib, uning his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu rivojlanish bolalarning o'qishga bo'lgan tayyorgarligi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va kelajakdagi shaxsiy hamda kasbiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos yaratadi. Shuning uchun, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Yoshlarni ana shunday o'ziga bo'lgan ishonchi kuchli, mustaqil fikrlay oladigan, turli davra suhbatlariga qatnasha oladigan, boshqlarni tinglay oladigan, tushuna oladigan va boshqalarga o'z hissiyotlarini namoyon qila oladigan shaxs sifatida ulg'aytirish uchun avva ulardan ba'zi qobiliyatlarni shakllantirish joiz deb o'ylayman, masalan: ulardan emotsional liderlik qobiliyatini oladigan bo'lsak, ushbu qobiliyat haqida tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalalik davridan shakllantirilgan emotsional likderlik qobiliyatlari keyinchalik akademik muvaffaqiyat, ijtimoiy moslashuvchanlik va shaxsiy o'sish jarayonlarida katta ahamiyat kasb etadi[4].

Emotsional liderlik – bu liderning o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Bunday liderlar o'z jamoalarida ishonchli va samarali muhit yaratishgaga qodir bo'lib, bu esa jamoa a'zolarining motivatsiyasi va ish samaradorligini oshiradi. Shu ma'noda, emotsional liderlik bizning va jamoamizning his-tuyg'ularini bilish va boshqarishga asoslangan. Bu eng yaxshi natijalarga erishish maqsadida odamlarga va bir-birimiz bilan qanday munosabatda bo'lishimizga qaratilgan yondashuv [5]. Xulosa qiladigan bo'lsak, emotsional liderlik – bu samarali boshqaruv va insonlararo munosabatlarda muhim omil bo'lib, liderning o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ulardan oqilona foydalanish qobiliyatiga asoslanadi. Bunday yondashuv jamoaviy ishonch, motivatsiya va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, emotsional liderlik nafaqat individual muvaffaqiyat, balki jamoaning umumiy taraqqiyotida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Emotsional liderlik o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va boshqarishni o'z ichiga oladi, bu jamoani o'z maqsadlariga erishish yo'lida ilhomlantiradi va yo'naltiradi. Emotsional liderlikning ushbu shakli o'z-o'zini boshqarish, anglash, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarga urg'u beradi. Emotsional liderlik bilan shug'ullanadigan rahbarlar o'zlarining va jamoa a'zolarining hissiy holatini tan olishda mohir bo'lib, bu ularga yanada samarali muloqot qilish va qo'llab-quvvatlovchi va samarali ish muhitini yaratishga imkon beradi. Hozirgi davrga emotsional liderlik muhim faoliyat deb hisoblaymiz, chunki, u jamoa dinamikasiga, xodimlarning roziligiga va tashkilot muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Emotsional intellekt bilan shug'ullanadigan rahbarlar jamoada ijobiy ish muhitini yarata oladi, xodimlar o'rtasidagi stressni pasaytirishga harakat qiladi va ko'proq yuklatilgan vazifa bilan band bo'lgan xodimlarni rag'batlantiradi. Bu esa o'z-o'zidan jamoadagi samarali ish kafoliyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirish ruhida tarbiyash faoliyati uchun emotsional intellekt muhim ahamiyat kasb etadi, emotsional liderlik faoliyati uchun boshlang'ich bo'g'in hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki boshqalarni hurmat yuzasidan tinglash, ularning fikrini hurmat qilish, emotsiyalariga befarq bo'lmaslik rahbar shaxsning muhim xususiyatlaridan biridir. Emotsional liderlikdagi ushbu xususiyat o'zaro ya'ni rahbar bilan xodim va jamoa a'zolarida yuzaga keladigan konfliktlarning oldini olish uchun xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda ta'lim tizimi o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki shaxsiy va ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarni rivojlantirishni ham dolzarb vazifa sifatida ilgari surmoqda. Xususan, boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchilarining hissiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda emotsional liderlik qobiliyatining shakllanishi bolalarda o'zini anglashi, boshqalarni tushunishi, ijtimoiy muhitga moslasha olishi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lib yetishishi uchun poydevor yaratadi. Emotsional liderlik — bu o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, boshqarish hamda bu emotsional holatlardan ijobiy tarzda foydalanish qobiliyatidir. Bu qobiliyat bolalikdan boshlab shakllantirilsa, ularning shaxsiy o'sishi, ijtimoiy moslashuvi va ta'limdagi muvaffaqiyati barqaror va samarali kechadi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda emotsional intellekt, rahbar shaxsning empatiyasi, tinglash madaniyati va ijtimoiy munosabatlarga hurmat bilan yondashuvi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunday ekan, emotsional liderlik boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab tizimli tarzda rivojlantirilishi zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biri bo'lib, u kelajak avlodning barkamol, faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Mavlonova, R., Turaev, B. (2021). Pedagogika: Nazariya va amaliyot. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. Quchqarova N., Masharipova D.(2023). “ Tayyorlov guruh bolalarini ijtimoiy va hissiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari”, Общество и инновации, 4(2), 152-157.
4. Asqarova M. “Bola emotsional rivojlanishining yosh xususiyatlari”. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 198-bet.
5. <https://people.acciona.com/professional-development/emotional-leadership/>